



## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-avgust)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahar korxonalari tomonidan 38,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 95,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (70,1 %) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 2,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda - 18,4 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 5,1 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 41,8 % ga o'sishi kuzatildi.

*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi**




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,3 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 21,5 % ini tashkil etdi.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish – 4,6 marta oshgan boʻlsa, sheben qazib olish 4,3 % ga oshgan. Shu bilan birga, tabiiy gaz - 0,7 % ga, gazli kondensat - 8,7 %, hamda graviy qazib olish - 84,2 % ga pasaygan.





Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
<b>Neft, ming t.</b>	89,1	407,6	318,5
<b>Tabiiy gaz, mln. kub.m.</b>	23684,6	23515,5	-169,1
<b>Gaz kondensati, ming t.</b>	544,4	497,1	-47,3
<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>	306,5	319,6	13,1
<b>Shag'al , ming t.</b>	124,2	19,6	-104,6



### Ishlab chiqarish sanoati


2020-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,2 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 70,1 % ini tashkil etdi.





### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 6,0 % ni (2019-yilning yanvar-avgust oylarida - 5,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 22,7 % (23,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 30,1 % (30,6 %) va quyi texnologiyali - 41,2 % (39,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 30,7 % (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 81,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 9,2 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 9,3 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 23,2 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 10,5 % (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 222,7 mln. dona butilka (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 38,8 % ga o'sgan), 5851,2 ming litr uzum vinosi (34,7 %), 887,0 mln. dona tamaki mahsuloti (27,3 %), 14286,1 ming litr aroq 100 % spirt (21,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.





Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	161805,6	187237,0	25432,6
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	12886,3	10062,3	- 2824,0
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	12068,0	11581,7	-486,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	31085,0	76406,0	45321,0
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	345290,0	282333,0	-62957,0



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,7 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (7,1 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 41,8 % ga oshganligi kuzatildi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	272,3	204,1	-68,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	8 117,0	8 442,6	325,6
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	263 030,0	715 862,0	452 832,0



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,5 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	61,2	46,6	-14,5
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	272,0	280,4	8,4
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mln. so'm	108,5	106,5	-2,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 3,1 % ga oshdi, hamda Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 1,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 23,8 % ga pasayish kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 14,3 trln. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 36,9 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 58,3 % dan 58,2 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,8 % (2019- yil yanvar-avgust oylarida 6,5 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 21,4 % ni shuningdek, Yashnobod tumani 16,3 % ni, Mirobod tumani 9,0 % ni, Chilonzor tumani 8,6 % ni hamda Olmazor 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (112,2 %), Bektemir (106,0 %), Yashnobod (105,6 %) hamda Sirg'ali tumanlarida (104,1 %) qayd etildi.





**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
*(2020-yilning yanvar-avgust oylarida)*

	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>14 324,1</b>	<b>100,0</b>	<b>101,5</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>718,2</b>	<b>5,0</b>	<b>98,8</b>
<b>Bektemir</b>	<b>3 071,5</b>	<b>21,4</b>	<b>106,0</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>704,6</b>	<b>4,9</b>	<b>97,5</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>1 135,3</b>	<b>7,9</b>	<b>93,6</b>
<b>Mirobod</b>	<b>1 293,9</b>	<b>9,0</b>	<b>112,2</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>911,1</b>	<b>6,4</b>	<b>94,2</b>
<b>Olmazor</b>	<b>1 176,2</b>	<b>8,2</b>	<b>93,8</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>1 122,9</b>	<b>7,8</b>	<b>104,1</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>613,2</b>	<b>4,3</b>	<b>95,8</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>2 341,9</b>	<b>16,3</b>	<b>105,6</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>1 235,3</b>	<b>8,6</b>	<b>99,0</b>

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 42,9 %, shuningdek, Sirg'ali 11,3 % ni, Yashnobod tumani 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mirzo Ulug'bek (110,8 %), Mirobod (110,2 %), Sirg'ali (105,9 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>5145,4</b>	<b>100,0</b>	<b>103,6</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>345,5</b>	<b>6,7</b>	<b>104,4</b>
<b>Bektemir</b>	<b>2205,3</b>	<b>42,9</b>	<b>105,3</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>213,9</b>	<b>4,2</b>	<b>99,1</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>240,2</b>	<b>4,7</b>	<b>110,8</b>
<b>Mirobod</b>	<b>192,8</b>	<b>3,7</b>	<b>110,2</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>160,8</b>	<b>3,1</b>	<b>95,1</b>
<b>Olmazor</b>	<b>413,8</b>	<b>8,0</b>	<b>99,9</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>583,3</b>	<b>11,3</b>	<b>105,9</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>98,2</b>	<b>1,9</b>	<b>104,9</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>415,8</b>	<b>8,1</b>	<b>93,3</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>275,7</b>	<b>5,4</b>	<b>105,8</b>

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 15,2 % ni, shuningdek, Mirobod 13,2 % ni, Chilonzor 11,5 % ni, Mirzo Ulug'bek 10,7 % ni, Bektemir 10,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnobod (120,6 %), Mirobod (112,6 %), Bektemir (108,1 %), Sirg'ali (102,4 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>O‘sinh sur‘ati, % da</b>
<b>Toshkent shahar</b>	8341,2	100,0	101,3
<b>Uchtepa</b>	372,7	4,5	94,0
<b>Bektemir</b>	866,3	10,4	108,1
<b>Yunusobod</b>	427,8	5,1	98,0
<b>Mirzo Ulug‘bek</b>	895,1	10,7	89,9
<b>Mirobod</b>	1101,1	13,2	112,6
<b>Shayxontohur</b>	686,3	8,2	94,7
<b>Olmazor</b>	762,3	9,1	90,8
<b>Sirg‘ali</b>	485,3	5,8	102,4
<b>Yakkasaroy</b>	514,9	6,2	94,2
<b>Yashnobod</b>	1269,8	15,2	120,6
<b>Chilonzor</b>	959,5	11,5	97,2



**Toshkent shahri hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari**


	<b>2020- yil yanvar-avgust mlrd. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>38795,0</b>	<b>95,0</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>2059,5</b>	<b>92,4</b>
<b>Bektemir</b>	<b>3647,6</b>	<b>98,8</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>2637,0</b>	<b>101,5</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>3067,2</b>	<b>95,0</b>
<b>Mirobod</b>	<b>4017,9</b>	<b>85,1</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>2223,9</b>	<b>93,8</b>
<b>Olmazor</b>	<b>2569,9</b>	<b>87,4</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>3158,5</b>	<b>98,7</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>1823,7</b>	<b>101,8</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>11421,7</b>	<b>102,2</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>2168,0</b>	<b>90,4</b>



**Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining


kamayishiga, Mirobod (2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 85,1%), Olmazor (87,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (112,2 %), Bektemir (106,0 %), Yashnobod (105,6 %) hamda Sirg'ali tumanlarida (104,1 %) qayd etildi.



**Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,4 %), Mirobod (10,4 %), Bektemir (9,4 %), Sirg'ali (8,1 %) hamda Mirzo Ulug'bek (7,9 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yakkasaroy (4,7 %) hamda Uchtepa (5,3 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
(2020-yil yanvar-avgust oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14,4 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,1 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 74,9 %), Chilonzor tumanida (73,9 %), Sirgʻali tumanida (67,3 %), Uchtepa (53,4 %), Yakkasaroy (55,1 %), Yunusobod (42,8 %) tumanlarida kuzatildi.


Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnabod (16,0 %), Mirobod (18,6 %) va Shayxontohur (31,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020- yil 1- sentyabr holatiga koʻra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 15,3 mingta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (roʻyxatdan oʻtgan korxonalar umumiy sonining 13,8 %) Olmazor tumaniga, 1,9 mingtasi (12,6 %)

Chilonzor tumaniga, 1,8 mingtasi (12,1 %) Uchtepa tumaniga, 1,7 mingtasi (10,9 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (9,0 %) Shayxontohur tumaniga, 1,3 mingtasi (8,7 %) Sirg'ali tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020-yilning yanvar-avgust oylarida shaharda 1275 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 170 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 13,3 %) Olmazor tumanida, 163 tasi (12,8 %) Chilonzor tumanida, 130 tasi (10,2 %) Uchtepa tumanida, 130 tasi (10,2 %) Mirzo Ulug'bek tumanida, 127 tasi (10,0 %) Shayxontohur tumanida hamda 125 tasi (9,8 %) Yunusobod tumanida tashkil etildi.




**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari**  
(2020-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor




(2 104 ta), Chilonzor (1 924 ta), Uchtepa (1 847 ta), Yunusobod (1 656 ta) hamda Shayxontohur (1 372 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar (1 sentyabr 2020 yil holatiga)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar (1 sentyabr 2020 yil holatiga)



2020-yilning 1-sentyabr holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (510 ta), Mirobod (861 ta), Yakkasaroy (1 184 ta), Yashnobod (1 208 ta), Mirzo Ulug'bek (1 262 ta) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi  
bo'limi**

Tel.: (71) 203-88-16